



## **XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-104-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni “Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalar to‘g‘risida”gi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 18-sonli bayonnomasida berilgan topshiriqlar ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman sektor rahbarlarining hisobotlari haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni Xotin-qizlarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalari to‘g‘risida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishi 18-sonli bayonning 33-bandida ko‘rsatilgan muddatda xotin-qizlar muammolarini hal etilishi yuzasidan ko‘rilayotgan choralar to‘g‘risida sektor rahbarlarining hisobotlarini muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq hamda mazkur masalaning tuman Kengashi yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan muhokama qilinganligini e‘tiborga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 1-mart kuni “Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalar to‘g‘risida”gi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishining 18-sonli bayonnomasida berilgan topshiriqlar ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar

to'g'risida sektor rahbarlarining hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari hamda tuman hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i N.Mamadiyeva bilan birgalikda:

- xotin-qizlarning murojaatlarini, shu jumladan, "Ayollar maslahat kengashi"ga kelib tushgan murojaatlarini ko'rib chiqish orqali ayollarning doimiy daromad manbai yaratilishini har oyda o'rganib borish;

- amalga oshirilayotgan ishlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'yicha har oyda xalq deputatlari tuman Kengashiga ma'lumot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i N.Mamadiyeva tumandagi "Ayollar daftari"ga kiritilgan ayollarni har oyda sektor ishchi guruhi a'zolari hamda mutasaddi tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda "Ayollar daftari"ga kiritilgan ishsiz ayollarning muammolarini hal etish bo'yicha manzilli ishlashning samaradorligini oshirish, biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va deputatlariga har oyda kamida bir marotaba hududlarga chiqqan holda, "Ayollar daftari" ga kirgan xotin-qizlar bilan muloqot o'tkazish, tanlov asosida ulardagi muammolarning hal etilishi, mas'ul xodimlarning faoliyati natijadorligi, "ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar va oilalarga ko'rsatilayotgan yordamlarini o'z vaqtida va manzilli tarzda yetkazishni alohida nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari Sho'rchi tumani Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Sattorova) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi**



**Xudoyberganov B.X**